

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



№10-SON

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621

2025-YIL, OKTABR



OPEN ACCESS



JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketingjournalbot](https://t.me/tidiumarketingjournal)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU, “Marketing” kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NamDTU, “Marketing” kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU “Marketing” kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrayevich, i.f.d., prof., TDIU, Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU, Departament boshlig'i;

Musheva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI, “Marketing” kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU, “Innovatsion menejment” kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU, “Axborot texnologiyalari” kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., NamDTU, “Menejment” kafedrasini mudiri, dotsent;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, “Yashil iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori;

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori;

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU, Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektor;

Abduxayidov Abdumalik Maxkamovich, i.f.d., TDIU, “Turizm va servis” kafedrasini professori;

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU, “Biznes boshqaruvi va logistika” kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University “Iqtisodiyot” fakulteti dekani, professor;

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU, “Yashil” iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU, Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU, Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Boltaev Umidjon Talant o'g'li, i.f.f.d., PhD., Toshkent arxitektura qurilish instituti “Iqtisodiyot va ko'chmas mulkni boshqarish” kafedrasini dotsenti;

Bayxonov Bahodirjon Tursunbayevich, i.f.n., DSc, NamDTU, “Menejment” kafedrasini dotsenti;

Pardayev Sherzod Xolmurodovich, i.f.f.d., PhD., TDIU, “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasini dotsenti;

Beknazarov Behzod Baxtiyor o'g'li, PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasini dotsent v.b.

Elektron nashr 661 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 31-oktabrda ruxsat etildi

MUNDARIJA

MINTAQALAR RIVOJLANISHINING IMIJ YARATISHGA ASOSLAGAN NAZARIYALARI.....	7
Duschanov Alisher Sherzod o‘g‘li	
ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УСЛОВИЯХ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА: СЕЗОННОСТЬ И МИНИМИЗАЦИЯ ЕГО НЕГАТИВНОГО ВЛИЯНИЯ	14
Муминов Нозим Гаффарович, Қодирзода Фазлиддин Садриддин, Гусейнов Хафиз Фехруз Оғлу, Хубони Сорбон	
О‘ЗBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSION PORTFELNI BOSHQARISHNING SAMARALI TIZIMINI JORIY ETISH.....	21
Madrimov Shuhrat Bahodir o‘g‘li	
О‘ZBEKISTONDA TERICHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	28
Kadirova Maraljan Matyakubovna	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATI NATIJADORLIGI VA UNI SAMARALI BOSHQARISH.....	38
Muminov Dilmurod To‘xtasinovich	
О‘ZBEKISTONDA ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARI UCHUN AKSIZ SOLIG‘I BIRXILLASHTIRILGAN STAVKALARINING SANOAT KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI	45
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro‘zumurat o‘g‘li, Otabekov Otajon G‘ayrat o‘g‘li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
SANOAT INFRATUZILMASINING ASOSIY KOMPONENTLARI VA ULARNI BOSHQARISH HAMDA OPTIMALLASHTIRISH MEKANIZMLARI.....	51
Rasulov Jamshid Karimovich	
О‘ZBEKISTONDA BIG DATA VA SUN‘IY INTELLEKT (AI) YORDAMIDA TO‘QIMACHILIK KORXONALARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH	59
Rustambekov Djasur Askarovich	
THE ROLE OF AGRICULTURE IN THE ECONOMY OF OUR COUNTRY	66
Saurova Inobat Ikramovna, Kadirbergenova Shaydo Umirbekovna	
О‘ZBEKISTON QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENT STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	73
Temirov Azizbek Voit o‘g‘li	
UZUMCHILIK SOHASIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR VA ULARNING TAHLILI	87
Tursunov To‘lqin Jo‘raqulovich	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARIDAN FOYDALANISH	98
Ubaydullayev Lutfulla Xabibullayevich	
KREATIV IQTISODIYOTNI VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	104
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
О‘ZBEKISTON HUDUDLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY TABAQALANISH DARAJASI TAHLIL QILISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Ibragimov Bahrom Bahodirovich	
IPAKCHILIK KORXONALARDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH JARAYONINI RIVOJLANTIRISH MODELLARINI ISHLAB CHIQISH.....	117
Aliyeva Nodiraxon Abdumalikovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA IQTISODIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	124
Alimov Muxammadbobur Ibragimjonovich	
ВНЕДРЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ «УМНОГО ГОРОДА» В УПРАВЛЕНИЕ ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНЫМ ХОЗЯЙСТВОМ	131
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли	

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМ РАЗВИТИЕМ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	141
Ортикхужаева Юлдуз Азатовна	
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH USTUVOR MASALALARI.....	151
Aliev Yashnarjon Egamberdievich	
RESURS TEJAMKOR QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA TARMOQ SAMARADORLIGI.....	157
Allasugirov Nurmuxammed Baxtiyarovich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARINING ASSORTIMENT SIYOSATI VA UNI BOSHQARISHGA ILMIY YONDASHUVLAR.....	163
Boboxo'jayev Baxtiyor Nazirxo'jayevich	
QURILISH SANOATI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MOHIYATI VA SHART-SHAROITLARI.....	170
Boltayev Umidjon Talant o'g'li	
UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA MASHINAVIY O'RGANISH USULLARI ORQALI TALABNI TAHLIL QILISHGA USLUBIY YONDASHULAR.....	182
Sharibaev Rasuljon Nosir o'g'li, Muxitdinov Shuhrat Ziyavitdinovich, Ibragimov Isroil Usmanovich	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ СТРАТЕГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНА.....	189
Ахмедов Камолхон, Исраилов Рустамбек Ибрагимович	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INVESTITSIYALARDAN UNUMLI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	198
Isakov Axmadali Esanbaevich	
KORXONALAR EKSPORT SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI.....	207
Karrieva Yakutjan Karimovna	
СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ ПО ПОКАЗАТЕЛЯМ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ.....	214
Ахмедов Камолхон, Исраилов Рустамбек Ибрагимович	
FRANCHAYZING VA KLASSTER YONDASHUVI SHAROITIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI.....	225
Sharibaev Rasuljon Nosir o'g'li, Muxitdinov Shuhrat Ziyavitdinovich, Ibragimov Isroil Usmanovich	
ELEKTRON TIJORATDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	231
Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI HUDUDIY RIVOJLANTIRISH MODELLARI VA MEZONLARI.....	238
Sharipov Rasulbek Siddiqovich	
PARKENT TUMANIDA OLTIN BEL TOG' KURORTINI RIVOJLANTIRISHNING MARKETING STRATEGIYALARI.....	246
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Ishmuratov Baxodir Xusanovich, Mahmudov Ziyoviddin Shamsiddinovich, Fatema Nabizada Javid	
MINTAQADA KLASSTERLARNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MODELLARNI QO'LLASH MASALALARI.....	260
Kadirov San'at Yuldashevich	
AGROKLASSTERLARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH.....	266
O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BIZNES MODELLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	273
Saatova Lolakhon Ergashevna	
HUDUDLARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIGA OMILLAR TA'SIRINI BAHOLASH.....	281
Salayeva Lobar Ulug'bek qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING BARQARORLIGINI TA'MINLASH OMILLARI.....	290
To'rayev Sardorbek To'rayevich	
MINTAQQA IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI.....	297
Turayev Og'abek Kaxramonovich	

TRANSFORMATSION IQTISODIY RIVOJLANISHDA SHAHAR BOSHQARUVINING YANGI MODELI SIFATIDA URGANCH TAJRIBASI	305
Radjabov Bunyod Madirimovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING MOLIVAVIY PUL OQIMLARI VA STRATEGIK MARKETING INTEGRATSIYASI.....	312
Masharipova Shahlo Adambaevna	
EKSPORT FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH JARAYONIDA MOLIVAVIY MEXANIZMLARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI	320
To'rayeva Yulduz Shamsiddin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH JARAYONIDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	328
Tursunxo'jayeva Gulnoza Jamoliddin qizi	
OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR BILAN TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	336
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SUN'IY INTELLEKT VA ANALITIK PLATFORMALAR YORDAMIDA RAQAMLI MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	345
Amonov Mirzohid Tuymuratovich	
BARQAROR MAHALLANI REJALASHTIRISHDA AQLLI MAHALLA TIZIMI IMKONIYATLARI.....	356
Qulmatova Sayyora Safarovna	
OLIY TALIMGA TALABALARNI JALB ETISHNING RAQAMLI MARKETING VOSITALARI	362
Isamuxametov Shukurullo Asatullayevich	
BANK MENEJMENTIDA MIJOZLAR BILAN MUNOSABATLARNI BOSHQARISH (CRM) TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	369
Kuliev Naim Xalimovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM TASHKILOTLARINING IJTIMOIIY TARMOQLARDAGI REYTINGINI BAHOLASHGA YONDASHUVLAR	382
Maxmudov Faxriddin Umarovich	
MINTAQAVIY XIZMATLAR SOHASIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA MENEJMENT SIFATINING O'ZARO BOG'LIQLIGI	388
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
FRANCHAYZING BRENDLARI UCHUN "BRENDLUK" KONSEPSIYASINING ILMIY ASOSLARI VA AMALIY NATIJALARI.....	399
Xodjayev Anvar Rasulovich	
MINTAQI IQTISODIY SALOHIIYATINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	410
Turayev Og'abek	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORIDA DIVERSIFIKATSIYA STRATEGIYASINING RAQOBATBARDOSHLLKKA TA'SIRI	418
Xudayberganov Jasur Baxodirovich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING TASHQI SAVDO FAOLIYATIGA BANKLAR TOMONIDAN HISOB-KITOB XIZMATI KO'RSATISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	427
Ibodullayeva Ma'rifat To'liqin qizi	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA MEXNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	436
Yusupova Dildora Turadjanovna, Musayev Shavkatjon Kayumjonovich	
O'ZBEKISTONDA IQTISODIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH	441
Jumayev Shuxrat	
IMPROVING CONSUMER RIGHTS PROTECTION MECHANISMS IN UZBEKISTAN'S AUTOMOBILE DELIVERY SYSTEM: LEGAL FRAMEWORKS AND DIGITAL TRANSFORMATION DIRECTIONS	450
Raupov Abdurahmon Ilhomovich	
ANALIZ VLIYANIYA KREATIVNOY INDUSTRII NA TURISTICHESKIY RYNOK KAKAKLPAKCTANA	457
Xoшимова Камилла Навфал қизи	
ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDA LEAN MENEJMENT TAMOIYILLARI.....	473
Bakayeva Mohira Axrorovna	

TURIZMDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING AMALIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH.....	484
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH..	498
Djumanov Sayitmurod Alimbekovich	
DIGITAL TRANSFORMATION OF BANK ASSET MANAGEMENT: LESSONS FROM THE EU DIGITAL FINANCE STRATEGY FOR UZBEKISTAN (JEAN MONNET MODULE)	505
Shirnova Shokhsanam	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	511
С. Х. Халиков	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ТРАНСПОРТНЫХ УСЛУГ: ТЕНДЕНЦИИ, СТРУКТУРА И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ (ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА)	518
Кайыбеков Парухат Коньисбаевич	
BANK SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: FINTECH YECHIMLARI VA MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISH INNOVATSIYALARI.....	525
Rasulov Nuriddin Abdullayevich, Axmedova Nodira Abdurashid qizi	
UZUM YETISHTIRUVCHI KICHIK VA O'RTA KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI VA INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH UCHUN INNOVATSION RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI.....	530
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	541
Mamatkulova Nadira Makkamovna	
YASHIL IQTISODIYOTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR (FINTECH) ORQALI MOLİYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	555
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA 2026-YILGA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISHLAB CHIQLIGAN TAKLIFLAR.....	564
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
SAVDO-MAMLAKAT IQTISODIYOTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRUVCHI MUHIM OMIL	575
Soliyev Axmadjon	
TASHABBUSLI BYUDJET LOYIHASNINING MOLİYALASHTIRISH MANBALARI TAHLILI	583
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISH	591
Daniyarov Kuatbay Dauirxanovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARIDA TURAR-JOY KO'CHMAS MULK BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	601
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLİYAVIY HISOBOT TUZISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	610
Avazov Ixom Ravshanovich	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	618
С.Х. Халиков	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLARGA MOLİYAVIY YORDAM KO'PAYTIRISH	625
Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g'li	
TURIZM XIZMATLARINI TASHKIL ETISHDA TRANSFORMATSIYALASH JARAYONLARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI.....	631
Tajieva Shaxnoza Mamarejabovna	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPERATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING AQSH TAJRIBASI	642
Rahimov Akmal Matyaqubovich	
INSON KAPITALINI SAMARALI BOSHQARISH ORQALI KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	653
Ochilov Akram Odilovich, Xasanova Aziza Ikromovna	

O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSION PORTFELNI BOSHQARISHNING SAMARALI TIZIMINI JORIY ETISH

Madrimov Shuhrat Bahodir o‘g‘li

“Asakabank” AJ Investitsiyalar boshqarmasi boshlig‘i

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston tijorat banklarining investitsion portfelini boshqarish tizimi tahlil qilinadi. Hozirda moliya bozorlarining rivojlanishi va bank sektorining investitsiya faoliyatiga bo‘lgan talab ortib borayotgan sharoitda mavzuning dolzarbligi yanada oshib bormoqda. Ushbu tadqiqot davomida tijorat banklarining investitsion strategiyalari, risklarni diversifikatsiyalash usullari, likvidlik darajasi hamda aktivlar portfelining tuzilmasi o‘rganildi. Shuningdek, maqolada investitsion portfel samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ilgari surilib, banklar uchun zamonaviy boshqaruv yondashuvlari tavsiya etildi.

Kalit so‘zlar: investitsion portfel, qimmatli qog‘ozlar, ESG investitsiyalar, kapital bozori, global moliya bozori, risklarni boshqarish tizimi, likvidli aktivlar.

Аннотация

В данной статье анализируется система управления инвестиционным портфелем коммерческих банков Узбекистана. В настоящее время актуальность темы обусловлена развитием финансовых рынков и растущим спросом банковского сектора на инвестиционную деятельность. В ходе исследования были изучены инвестиционные стратегии коммерческих банков, методы диверсификации рисков, уровень ликвидности и структура активного портфеля. Также в статье представлены предложения по повышению эффективности инвестиционного портфеля и рекомендованы современные подходы к управлению для банков.

Ключевые слова: инвестиционный портфель, ценные бумаги, ESG инвестиции, рынок капитала, глобальный финансовый рынок, система управления рисками, ликвидные активы.

Abstract

This article analyzes the investment portfolio management system of commercial banks in Uzbekistan. Currently, the relevance of the topic is driven by the development of financial markets and the increasing demand for investment activities within the banking sector. The study examines the investment strategies of commercial banks, methods of risk diversification, liquidity levels, and the structure of asset portfolios. Additionally, the article presents recommendations for improving the efficiency of investment portfolios and proposes modern management approaches for banks.

Keywords: investment portfolio, securities, ESG investments, capital market, global financial market, risk management system, liquid assets.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun samarali moliyaviy tizimning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tizimda tijorat banklari markaziy o‘rin tutadi, chunki ular nafaqat kreditlash, balki investitsion faoliyat orqali

iqtisodiy jarayonlarni moliyalashtiradi va rivojlantiradi. Ayniqsa, tijorat banklarining investitsion portfelni boshqarish tizimi ularning moliyaviy barqarorligi hamda raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Investitsion portfel — bu tijorat bankining turli moliyaviy aktivlarga kiritilgan sarmoyalari to'plami bo'lib, u risklarni diversifikatsiyalash, likvidlikni saqlash va daromadlilikni oshirish imkonini beradi. Masalan, O'zbekiston tijorat banklari o'z investitsion portfellariga davlat qimmatli qog'ozlari, korporativ obligatsiyalar, depozitlar va boshqa moliyaviy vositalarni kiritish orqali risklarni kamaytirishga harakat qilmoqda. Biroq, hozirgi kunda ushbu portfellarning tarkibi va boshqaruv usullarining samaradorligini oshirish bo'yicha hali ko'plab muammolar mavjud.

So'nggi yillarda O'zbekiston moliya bozori sezilarli darajada rivojlandi. Fond bozorining kengayishi, yangi investitsion instrumentlarning paydo bo'lishi hamda banklar faoliyatining raqamlashtirilishi investitsion portfel boshqaruvi tizimining zamonaviylashuviga zamin yaratmoqda. Masalan, "Ipoteka-bank" va "Aloqabank" kabi tijorat banklari o'z investitsion portfellarida innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirishga intilmoqda. Shunga qaramay, risklarni baholash va boshqarish jarayonlaridagi mavjud zaifliklar, shuningdek, likvidlikni ta'minlashdagi qiyinchiliklar banklarning investitsion faoliyatiga to'sqinlik qilmoqda.

Shu sababli, O'zbekiston tijorat banklarida investitsion portfelni boshqarish tizimini chuqur o'rganish, amaldagi yondashuvlarni tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish bo'yicha samarali strategiyalar ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi. Bu nafaqat banklarning moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilashga, balki mamlakat iqtisodiyotining umumiy barqarorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi — O'zbekiston tijorat banklarida investitsion portfelni boshqarish tizimini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida amaldagi boshqaruv usullari, investitsion portfellar tarkibi, risklarni diversifikatsiya qilish hamda likvidlikni ta'minlash masalalari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsion portfelni boshqarish nazariyasi XX asrning o'rtalarida Markowitzning portfel nazariyasi orqali shakllana boshlagan. Uning asosiy g'oyasi — aktivlar o'rtasidagi korrelyatsiyani inobatga olgan holda risklarni minimallashtirish va daromadlilikni maksimal darajada oshirishdir. Sharpe 1964-yilda o'zining "Sharpe ratio" ko'rsatkichi yordamida portfel samaradorligini baholashda yangi yondashuvni taklif qilgan. Ushbu metodologiyalar hozirgi kunda ham keng qo'llanilmoqda, biroq zamonaviy moliya bozorlarining murakkablashuvi ularni yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

So'nggi yillarda investitsion portfel boshqaruvi sohasida sun'iy intellekt va mashinani o'rganish texnologiyalarining qo'llanilishi tadqiqotchilar e'tiborini tortmoqda. Masalan, Cheng va hammualliflar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida sun'iy neyron tarmoqlar asosida tijorat banklarida kredit riskini erta ogohlantirish modelini

ishlab chiqqan. Ularning tadqiqot natijalari an'anaviy modellarga nisbatan yuqori aniqlik va samaradorlikni namoyish etgan^{1,2}

O'zbekiston tijorat banklarida investitsion portfel boshqaruvi sohasida ham bir qator tadqiqotlar olib borilgan. A. Agzamov va D. Malikovalarning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tijorat banklarining investitsion portfellarida davlat qimmatli qog'ozlarining ulushi yuqori bo'lib, bu holat portfelning xavfsizligini ta'minlash bilan birga daromadlilikning cheklanishiga olib keladi. Shuningdek, tadqiqotchilar "korporativ obligatsiyalarning kam rivojlanganligi va moliya bozori infratuzilmasining cheklanganligi banklarning investitsion portfellarini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini toraytiradi" degan asosli fikrni ilgari surgan.

Banklarning investitsion portfelini samarali boshqarish uchun risklarni boshqarish tizimlarini yanada rivojlantirish zarur. A. Khujamurotov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kredit portfellarini segmentatsiya qilish va muammoli kreditlar ulushini kamaytirish investitsion portfel boshqaruvida muhim omil ekanligi ta'kidlangan. Bu esa banklarning risklarni diversifikatsiya qilish va likvidlikni oshirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston tijorat banklarining investitsion portfelini boshqarish tizimi kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida tijorat banklarining yillik moliyaviy hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan taqdim etilgan rasmiy statistik ma'lumotlar, shuningdek, so'nggi yillarda chop etilgan ilmiy maqolalar va tadqiqot ishlari asosiy manba sifatida foydalanilgan.

Tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlil metodlari, taqqoslash hamda statistik usullar keng qo'llanilgan. Natijada, investitsion portfel boshqaruvining amaldagi holati va samaradorligi baholandi, shuningdek, O'zbekiston tijorat banklarining investitsion portfellarini boshqarishda samaradorlikni oshirish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, global moliya bozorida tijorat banklarining investitsion portfeli ko'p tarmoqli va murakkab tuzilishga ega ekani hech kimga sir emas. Yirik xalqaro moliya institutlari, xususan JPMorgan Chase, HSBC va Citibank investitsion portfellarini tarkibiga nazar tashlansa, ushbu banklar asosan xavfsiz aktivlar — davlat qimmatli qog'ozlari va likvid obligatsiyalar hamda yuqori rentabellikka ega aktivlarni muvozanatlash orqali risklarni kamaytirishga intilayotgani ko'rinadi.

Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar — sun'iy intellekt (SI) va katta ma'lumotlar tahlili (big data analytics) ham investitsion portfel boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirda JPMorgan va Deutsche Bank kabi yirik moliya institutlari tomonidan SI asosida ishlab chiqilgan kredit riskini erta aniqlash modellari

¹ Cheng, Y., Yang, Q., Wang, L., Xiang, A., & Zhang, J. (2024). Research on Credit Risk Early Warning Model of Commercial Banks Based on Neural Network Algorithm. *arXiv*. <https://arxiv.org/abs/2405.10762>

² Agzamov, A., & Malikova, D. (2024). Loan portfolio of banks in Uzbekistan and ways to improve the efficiency of loan portfolio management. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*. <https://doi.org/10.5281/zenodo>

amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Bu banklarga risklarni kamaytirish va investitsiyalarni yanada samarali boshqarish imkonini bermiqda.

Shuningdek, ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillariga rioya qilish jahon banklari uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Morgan Stanleyning 2024-yilgi hisobotiga ko'ra, ESG investitsiyalarning global banklar portfellaridagi ulushi o'rtacha 30 foizni tashkil etib, bu uzoq muddatli barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, jahonning rivojlangan tijorat banklari investitsion portfelli diversifikatsiyalangan, texnologiyalar bilan boyitilgan hamda barqarorlik tamoyillariga asoslangan bo'lib, bu ularning moliyaviy samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirmoqda.

O'zbekiston tijorat banklarining investitsion portfeli esa asosan konservativ yo'nalishda shakllangan bo'lib, davlat qimmatli qog'ozlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Markaziy bankning 2020–2023-yillar oralig'idagi ochiq statistik ma'lumotlariga ko'ra, davlat obligatsiyalarining tijorat banklari investitsion portfellaridagi ulushi o'rtacha 70–75 foizni tashkil etgan. Davlat ulushi mavjud aksariyat yirik tijorat banklari o'z portfellarida asosan davlat qimmatli qog'ozlariga ustunlik bermiqda, bu esa portfel xavfsizligini ta'minlashi bilan bir paytda investitsiyalardan olinadigan daromadlilikni cheklamoqda.

Shu bilan birga, O'zbekiston moliya bozorining rivojlanishi va yangi moliyaviy instrumentlarning paydo bo'lishi banklarga portfellarini diversifikatsiya qilish imkonini bermiqda. Biroq, mahalliy fond bozorida hozircha korporativ obligatsiyalar hamda boshqa yuqori rentabellikka ega aktivlarning ulushi past bo'lib, bu holat banklarning investitsion strategiyasini konservativlashtirmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston tijorat banklarida investitsion portfel boshqaruvining asosiy muammolari quyidagilardir: diversifikatsiya yetishmasligi — investitsion faoliyat asosan davlat tomonidan kafolatlangan qarz qimmatli qog'ozlariga qaratilgani sababli portfel rentabelligi past; risklarni boshqarish tizimlarining rivojlanmaganligi — mamlakat tijorat banklari tomonidan zamonaviy texnologiyalar va risklarni aniqlash usullari keng qo'llanilmayapti; likvidlikni ta'minlashdagi qiyinchiliklar — aksariyat aktivlar uzoq muddatli bo'lib, zarur paytda ularni tezda pulga aylantirish (sotish) murakkab; moliya bozori infrastrukturasi cheklanganligi — bozorda yangi investitsion mahsulotlar va mexanizmlar kam.

Tijorat banklarining investitsion portfeli bank aktivlarining muhim qismidir va u bankning moliyaviy barqarorligi, likvidlik darajasi hamda daromadlilikini ta'minlashda asosiy vosita hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekiston tijorat banklari o'z investitsion portfellarini shakllantirishda asosan davlat qimmatli qog'ozlari, korporativ obligatsiyalar, depozitlar va boshqa moliyaviy instrumentlardan foydalanmoqda. Biroq, ushbu aktivlarni boshqarishda risklarni diversifikatsiya qilish, likvidlikni saqlash va portfel samaradorligini oshirish bo'yicha qator muammolar mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davomida O'zbekiston tijorat banklarining investitsion portfelini boshqarish tizimi holatini kompleks tarzda o'rganilgan. Jahonning rivojlangan bank-moliya institutlari amaliyoti, xususan JPMorgan Chase, HSBC va Citibank kabi yirik banklarning yillik hisobotlari hamda tahliliy sharhlaridan aniqlanishicha, ularning investitsion portfellarida yuqori darajadagi diversifikatsiya, aktivlarning muvozanatli taqsimoti, ilg'or texnologik yechimlardan foydalanish va barqarorlik tamoyillariga asoslangan yondashuvlar ustuvor o'rin egallamoqda.

Jahon banklarida investitsion portfel tarkibi nafaqat daromadlilikka, balki korporatsiya risklarini minimallashtirish va likvidlikni saqlab turish mezonlariga ham asoslanadi. Masalan, JPMorgan Chase o'z portfelining katta qismini davlat obligatsiyalari, rivojlangan mamlakatlar aksiyalari hamda likvid vositalarga yo'naltirgan. Bu esa moliyaviy barqarorlik va investorlar ishonchini ta'minlashga xizmat qiladi. Shundan xulosa qilish mumkinki, muvaffaqiyatli investitsion boshqaruv chuqur risk tahlili, strategik rejalashtirish va bozor signallariga tezkor javob berishni talab etadi.

O'zbekistonda tijorat banklari investitsion portfellarining asosiy qismini davlat qimmatli qog'ozlari tashkil etadi. Bu, bir tomondan, xavfsizlik va past riskli investitsiyalarni ta'minlasa-da, portfelning daromadlilik darajasini cheklaydi hamda investitsiyalashning innovatsion yondashuvlari imkoniyatini kamaytiradi. Davlat ishtirokidagi yirik tijorat banklarining investitsion faoliyatida asosan konservativ yondashuv saqlanib qolgan. Shuningdek, tahlillar shuni ko'rsatadiki, risklarni diversifikatsiya qilish vositalari yetarlicha joriy etilmagan, texnologik yechimlar cheklangan va investitsion qarorlar ko'pincha faqat asosiy indikatorlarga tayanadi.

Mazkur holatda banklarning investitsion salohiyati to'liq ishga solinmayapti, bu esa kapitalning samarali aylanishini, iqtisodiyotda yuqori darajadagi moliyalashtirish imkoniyatlarini va raqobatbardoshlikni susaytiradi.

O'rganish natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy ahamiyatga ega takliflar ishlab chiqildi:

Investitsion portfel diversifikatsiyasini kuchaytirish. Banklar investitsion portfelli tarkibini qayta ko'rib chiqib, turli sohalaridagi korporativ obligatsiyalar, aksiyalar, xalqaro investitsiya instrumentlari (ETF, REITs), innovatsion startup loyihalar va boshqa daromadli vositalar hisobiga diversifikatsiyalashni amalga oshirishlari zarur. Diversifikatsiyalangan portfel riskni kamaytirib, daromadning o'sish potensialini oshiradi.

Zamonaviy risk boshqaruvi tizimlarini joriy etish. Banklar investitsion faoliyatida risklarni baholash va boshqarish tizimlarini kuchaytirishlari lozim. Bu borada Value-at-Risk (VaR), stress-testlar va ssenariy tahlillari kabi xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan usullarni joriy etish maqsadga muvofiq. Mazkur usullar investitsion qarorlar qabul qilishda yanada asosli va barqaror yondashuvni ta'minlashi mumkin.

Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish. Jahon banklari tajribasi shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt asosida tuzilgan investitsion modellar va "Big Data" tahlillari real vaqt rejimida investitsiya holatini baholash, xavflarni aniqlash

hamda prognozlashda yuqori samaradorlikka ega. Respublikamiz tijorat banklari ushbu yo‘nalishda texnologik va dasturiy infratuzilmani rivojlantirishi, shuningdek, mos algoritmik yechimlarni ishlab chiqishni ta‘minlashi zarur.

Moliyaviy instrumentlar bozorini rivojlantirish. O‘zbekiston kapital bozori imkoniyatlarini kengaytirish orqali tijorat banklarining investitsiyalash salohiyatini oshirish mumkin. Bu borada zamonaviy investitsion vositalar — “green bonds”, “sukuk”, IPO va SPO lar orqali emitentlar sonini oshirish, korporativ qimmatli qog‘ozlar bozorini jonlantirish hamda ikkilamchi bozordagi likvidlikni ta‘minlash lozim.

ESG tamoyillarini investitsion siyosatga integratsiya qilish. Yevropa va AQSh banklarining tajribasiga tayanib aytish mumkinki, uzoq muddatli investitsiyalarda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) mezonlarini ko‘proq hisobga olish nafaqat ijtimoiy mas‘uliyatni kuchaytiradi, balki xorijiy investorlar ishonchini oshiradi. O‘zbekiston banklari uchun bu yo‘nalish strategik ustuvorlikka aylanishi mumkin.

Kadrlar malakasini oshirish va institutsional islohotlar. Investitsion portfelni boshqarish bilan shug‘ullanuvchi bank xodimlarining malakasi va kompetensiyasi yuqori bo‘lishi, bozordagi tebranishlarga tezda javob bera olishi hamda qarorlar qabul qilishda asosli va barqaror yondashuvni namoyon etishi zarur. Shu sababli, tijorat banklari doirasida malaka oshirish dasturlari, xalqaro treninglar va ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish muhim. Bundan tashqari, reguliator sifatida Markaziy bank tomonidan investitsion faoliyatni rag‘batlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani takomillashtirishga amaliy yordam ko‘rsatilishi lozim.

Yakuniy xulosa sifatida ta‘kidlash joizki, mamlakatimizda tijorat banklarining investitsion portfelini yuqori darajada samarali boshqarish tizimi hali to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, bank sektorining liberallasuvi, transformatsiya va xususiyashtirish jarayonlari hamda dasturiy-texnologik taraqqiyot bu yo‘nalishda muhim imkoniyatlar yaratmoqda. Shuningdek, banklar o‘z strategiyalarida investitsion yo‘nalishlarning imkoniyatlarini chuqur tahlil qilgan holda, xalqaro standartlarga mos keladigan diversifikatsiya, risk boshqaruvi va texnologik integratsiyani ta‘minlagan taqdirda, mazkur moliyaviy vositalar banklarning korporativ barqarorlik, yuqori daromadlilik, raqobatbardoshlik hamda umumiy iqtisodiy o‘sish kabi asosiy omillariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishiga ishonchimiz komil.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Cheng, Y., Yang, Q., Wang, L., Xiang, A., & Zhang, J. (2024). Research on Credit Risk Early Warning Model of Commercial Banks Based on Neural Network Algorithm. arXiv. <https://arxiv.org/abs/2405.10762>.
2. Agzamov, A., & Malikova, D. (2024). Loan portfolio of banks in Uzbekistan and ways to improve the efficiency of loan portfolio management. / Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. <https://doi.org/10.5281/zenodo>.
3. The Banker. (2023). Global Banking Report. <https://www.thebanker.com/>.
4. Morgan Stanley. (2024). Sustainable Investing Trends in Banking. <https://www.morganstanley.com/articles/sustainable-investing-trends>.

5. Ibodullaev, I. (2022). O‘zbekiston tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar. Academy of Leadership. <https://academicleadership.org/index.php/jal/article/view/9>.
6. <https://new.openinfo.uz/facts/>.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, oktabr, 10-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. FOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**